

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent pediatriya tibbiyot
instituti rektori

B.T.Damirov

2022 yil



BOLALAR VA O'SMIRLAR KASALLIKLARI MODULI DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000	- Cog'liqni saqlash
Mutaxassislik:	70910301	- Pediatriya

Toshkent – 2022

Tuzuvchilar:

Axmedova D.I. - Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 2-Gospital pediatriya noan'anaviy davolash asoslari" kafedrası mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori

Axmedova N.R. - Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, 2-Gospital pediatriya noan'anaviy davolash asoslari" kafedrası assistenti, tibbiyot fanlari doktori

Taqrizchilar:

Axmedova I.M. – TXKMRRM Pediatriya va bolalar ovqatlanishi kafedrası mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori

SHomansurova E.A. – ToshPTI Ambulator tibbiyot va jismoniy tarbiya kafedra mudiri, professor, tibbiyot fanlari doktori

Modul dasturi Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ishlab chiqildi.

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti MUK yigilishida ko'rib chiqilgan. (2022 yil “_24_” avgust “__1__” – sonli bayonnoma).

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (2022 yil “_31_” avgust “__314__” – sonli buyruq 3- ilova).

1.O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasida onalik va bolalikni muxofaza qilish Sog'liqni saqlash vazirligining ustuvor yunalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu yo'nalishda olib borilayotgan barcha isloxtalar bolalar sog'ligini saqlash va go'daklar o'limini kamaytirishga qaratilgan. Bunda profilaktik pediatriya, bolalar va o'smirlarda uchraydigan kasalliklarni, xamda ularning salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar, oila va umuman jamoatni ekologiyasini o'rganishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bu borada yuqori malakali pediatr mutaxassislarini tayyorlash xam juda muxim o'rinni egallab kelmokda.

Bolalar va o'smirlar kasalliklari fani magistraturaning Pediatriya mutaxassisligiga taalluqli. Bolalar va o'smirlar kasalliklari moduli klinik tibbiyotni asosiy qismlaridan biri bo'lib, sog'liqni saqlash tizimining zamon talablariga javob beruvchi bolalarga tibbiy yordam ko'lamini oshirishning asosi hisoblanadi. Fanni o'rganish mobaynida magistratura talabasi yoshiga va premorbid foniga bog'liq xolda kardiorevmatologik, pul'monologik, gastroenterologik, nefrologik, gematologik va allergologik kasalliklarning va neonatal davrda uchraydigan kasalliklarning klinik kechishini o'ziga xosligini o'rganadilar. Bolalarda tez-tez uchraydigan yuqorida sanab o'tilgan kasalliklarga oid kasalliklarning og'ir variantlari, aloxida alomatlar va sindromlarning differensial diagnostik axamiyatini, funksional va laborator diagnostikasini, xamda kasalliklarda noan'anaviy tibbiyot davolash uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplari bo'yicha bilim xosil qiladilar. Fanni o'zlashtirish uchun ta'limning oldingi bosqichlaridagi Bolalar kasalliklari propedevtikasi, Fakul'tet pediatriya, Gospital pediatriya va Ambulator tibbiyot fanlarini o'rganish mobaynida shakllangan bilim, ko'nikma va faoliyat turlari kerak bo'ladi.

Bo'lg'usi pediatr mutaxassisiga ushbu modul dasturi sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'inida klinik jixatdan tashxislash, yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsata olish hamda doimiy davolash va profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazish uchun zamin yaratib beradi.

2.O'quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi - magistratura talabasilarga bolalarning yoshiga va premorbid foniga bog'liq xolda bolalar va o'smirlarda kasalliklarining klinik kechishini o'ziga xosligini e'tiborga olgan holda tashxislash, qiyosiy tashxislash va davo choralari olib borish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

2. Modulning vazifalari:

- bolalar va o'smirlarda uchraydigan pul'monologik, allergologik va kardiorevmatologik kasalliklarga xamda qon va qon xosil qilish buzilishlari bilan kechadigan kasalliklarning og'ir variantlari, premorbid xolga bog'lik xolda xarxil shaklda kechishi, o'ziga xos klinik alomatlar ega bo'lganligi, aloxida alomatlar va sindromlarning differensial diagnostik axamiyatini, funksional diagnostikasi va laborator diagnostikasini, davolash uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplarini o'rgatishdan iboratdir.
- bolalar va o'smirlarda uchraydigan gastroenterologik, nefrologik va gematologik kasalliklarning og'ir variantlari, kechish xususiyatlari, aloxida alomatlar va sindromlarning differensial diagnostik axamiyatini, funksional diagnostikasi va

laborator diagnostikasini, xamda kasalliklarda noan'anaviy tibbiyot davolash uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplarini o'rgatishdan iboratdir.

- bolalar va o'smirlarda uchraydigan kardiorevmatologik, pul'monologik, gastroenterologik, nefrologik va allergologik kasalliklarda shoshilinch xolatlarni og'ir variantlari, o'ziga xos klinik alomatlariga ega bo'lganligi, sindromlarning differensial diagnostik axamiyatini, funksional diagnostikasi va laborator diagnostikasini, xamda kasalliklarda tez yordam ko'rsatish va davolash uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplarini o'rgatishdan iboratdir.
- pediatriya mutaxassisligi murakkab patologiyasini yaxshi biladigan, tegishli modullardan chuqur bilimga ega bo'lgan, klinik fikrlashga qodir pediatrning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirish;
- pediatriya mutaxassisligi bo'yicha yangi texnologiyalar va usullarni o'zlashtirish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish;
- turli xil tibbiy yordamni, shu jumladan favqulodda vaziyatlarda tibbiy yordam ko'rsatishni amalga oshiradigan mustaqil tibbiy yordam ko'rsatish va diagnostika faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashgan mutaxassisni tayyorlash, bemorlar hayotining barcha davrlarida profilaktika va rehabilitatsiya choralarni amalga oshirish;
- pediatr ko'nikmalari va tibbiy muolajalarni o'zlashtirgan, shu jumladan, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishga qodir mutaxassis shifokorni tayyorlash;
- sog'liqni saqlash, sug'urta, tibbiyot psixologiyasini tashkil qilish va iqtisod qilishda shifokorga mustaqil fikrlash imkonini beradigan umumiy va maxsus bilimlar, ko'nikmalar tizimini shakllantirish va takomillashtirish;
- bolalarda kasalliklarni tashxislash, davolash va oldini olishning zamonaviy usullari to'g'risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o'rgatish.

2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

Magistratura talabasi:

- mamlakatimizning va chet el pediatriyasining yutuqlari;
- respublikada bolalarga ko'rsatiladigan yordamni tashkillashtirishning dolzarb muammolari;
- onalik va bolalikni himoya qiladigan davlat dasturlari va hujjatlari;
- respublikada yangi tug'ilgan chaqaloqlar skrining xizmati;
- immunoprofilaktika asoslari, postvaksinal davrning kechishi va postvaksinal asoratlarda qo'llaniladigan chora-tadbirlari;
- boshqa ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasalarga o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni;
- tibbiyot xodimlari va bemorning qarindoshlari bilan muloqotni etik va deontologik asoslarini;
- bola organizmining anatomik va fiziologik xususiyatlari va premorbid fon xolatlari;
- bemor bolani tekshirish usullari xususiyalari;
- bola jismoniy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillari;
- bolalarda a'zo va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlari xaqida ***tasavvurga ega bo'lishi***;

- bolalarga ixtisoslashtirilgan bo'limlarda ko'rsatiladigan yordamni tashkillashtirishni;
- onalik va bolalikni himoya qiladigan davlat dasturlari va hujjatlarini;
- bolalarga dalillarga asoslangan tibbiyotga ko'ra davolash-profilaktik yordamni tashkillashtirishni;
- homilani antenatal himoya qilishni tashkillashtirishni;
- bemor bolalardagi funksional va laborator tekshirish usullarining o'tkazilishini va tahlilini;
- bolalarda a'zo va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini o'xshash kasalliklar bilan qiyosiy tashxislashni;
- bola organizmidagi premorbid fon oldi holati, asosiy, yo'ldosh kasalliklarni va asoratlarni e'tiborga olgan holda davolash;
- shoshilinch xolatlar semiotikasi va sindromlarini o'xshash kasalliklar bilan qiyosiy tashxislashni xamda bunday xolatlarda bolalardagi funksional va laborator tekshirish usullarining o'tkazilishini va tahlilini;
- bola organizmining anatomik va fiziologik xususiyatlari bo'yicha bilimlarni qo'llashni;
- bemor bolani ob'yektiv tekshirish usullarini;
- bolalarda a'zolar va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini aniqlashni, o'xshash sindromlarni qiyosiy tashxislashni;
- bola organizmidagi premorbid fon oldi xolati, asosiy, yo'ldosh kasalliklarni va asoratlarni e'tiborga olgan holda davolash;
- a'zolar va tizimlarning shoshilinch xolatda asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini aniqlashni;
- bola organizmidagi shoshilinch xolatda asoratlarni e'tiborga olgan holda davolashni;
- bemorlarni dispanserizatsiya qilish, uning samaradorligini tahlil qilishni
- mustaqil ravishda o'quv, ilmiy adabiyot bilan ishlashni;
- laborator va instrumental tekshirish natijalarini taxlil qilishni;
- bolalarda a'zo va tizimlarning asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini o'xshash kasalliklar bilan qiyosiy tashxislashni;
- tibbiy xujjatlarni yuritish asoslari haqida ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- mustaqil ravishda anamnez yigish;
- bemor bolani ob'yektiv tekshirish usullarini;
- umumklinik (umumiy qon, peshob, najas), biokimyo va immunologik taxlillarni interpretatsiyasi;
- pediatriyada funksional, instrumental va laborator tekshirish usullari (elektrokardiografiya, exokardiografiya, KIG, rentgengografiya, pikfloumetriya, spiroografiya, KT, MSKT, farmakologik va funksional sinamalar) interpretatsiyasi;
- ingalyatordan foydalanish texnikasi;
- shoshilinch xolatda asosiy jaroxatlanish semiotikasi va sindromlarini aniqlashni, xamda o'xshash sindromlarni qiyosiy tashxislashni,

- asoratlarni e'tiborga olgan holda shoshilinch davolash, birinchi yordam ko'rsatish kabi *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Fanda ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

3.2. Moduldagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Bolalar va o'smirlar kasalliklari modul dasturi bo'yicha mashg'ulotlar I-IV semestrlarda olib boriladi. Mashg'ulotlar 50% nazariy (seminar mashg'ulotlari) va 50% amaliy qism (tematik bemorlar ko'rigi)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.

3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:

1. Nafas a'zolari kasalliklari

1-mavzu. YUqori nafas yo'llari kasalliklari. Bronxitlar. etiopatogenez, klassifikatsiya, klinika, diagnostik mezonlar, laborator-instrumental tekshirish usullari, kiyesiy tashxis (utkir zotiljamlar, bronxiolitlar), gospitalizatsiyaga ko'rsatma.

2-mavzu. O'tkir zotiljamlar: tasnif, yutal, xansirash va perkutor tovushni uzgarishi belgilarini bilan kechuvchi nafas yullari kasalliklarini kiyesiy tashxisi, morfologik turlariga, chakiruvchisiga, bolaning yeshiga va premorbid fonga (raxit, gipotrofiya, EKD, LGD) bog'lik xolda klinikasi, kechishi, asoratlari, noan'anaviy usullar bilan davolash prinsiplari, profilaktika. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish – pnevmoniya.

3-mavzu. Turli etiologiyali (stafilokokkli, streptokokkli, pnevmokokkli, mikoplazmali, xlamidiyali, pnevmotsistli va virusli) zotiljamlarni kechish xususiyatlari, asoratlari, antibakterial terapiya algoritmi, noan'anaviy usullar bilan davolash prinsiplari.

4-mavzu. Bronxiolitlar. Klinik va paraklinik mezonlar. Nafas yetishmovchilik sindromini aniklash. Qiyesiy tashxis (bronxopnevmoniyalar, obstruktiv bronxit, bronxial astma), bronxoobstruktiv sindromini differensial davolash prinsiplari, natija, asoratlar, noan'anaviy usullar bilan davolash. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish – bronxoobstruktiv sindrom

5-mavzu. Bolalarda plevrit. Tasnif, tashxislash mezonlari (intoksikatsiya simptomokompleksi, upka-plevral uzgarishlar), kiyesiy tashxis (atelektaz, massiv zotiljam, upka usmasi, yurak kasalliklarida upka dimlanishi, upka absessi). Plevral punksiyani utkazilish metod iva ekssudatni tekshirishi, FVD, KOS. Nospetsifik plevritlarda (sinpnevmonik va metapnevmonik) davo rejasi.

6-mavzu. Bronx o'pka va o'pka qon tomirlari nuqsonlari va nasliy kasalliklari (o'pka gemosiderozi, Kartagener sindromi, birlamchi o'pka gipertenziyasi). Tashxis mezonlari, kiyosiy tashxis (ikkilamchi gemosideroz, zotiljam, gemolitik anemiya, sarkoidoz, Gudpascher sindromi, VPS, kollagenozlar, surunkali zotiljam)

2. Allergik kasalliklar

7-mavzu. Pollinozlar va allergik kasalliklar . Kasalliklarning tasnifi, epidemiologiyasi, uchrash tezligi, klinik kechishining o'ziga xosligi, qiyosiy-tashxisiy mezonlari, davolash tamoyillari, asoratlari va oqibatlarini. Bronxial astma va allergik rinit. Kasalliklarning tasnifi, epidemiologiyasi, uchrash tezligi, klinik kechishining o'ziga xosligi, qiyosiy-tashxisiy mezonlari, davolash tamoyillari, asoratlari va oqibatlarini. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish - astma

8-mavzu. Ovqat allergiyasi va insekt allergiyalar. Ta'rifi, tasnifi, epidemiologiyasi, xar xil shakllarining klinik -morfologik tavsifi, qiyosiy tashxislash tamoyillari, zamonaviy davosi. Dori allergiyasi. Anafilaktik shok. Zardob kasalligi. Patologiyalarning xar-xil klinik-morfologik shakllarining tavsifi. SHifoxonaga yotqizishga ko'rsatmalar. Davo va rehabilitatsiya tamoyillari.

9-mavzu. Immuntanqislik xolatlar. Immun tanqislik xolatni ta'siri. Zamonaviy preparatlar, davolash sxemasi, immunokorrigirlovchi preparatlarni qo'lash usullari.

3. YUrak qon tomir tizimi kasalliklari

10-mavzu. YUrak tug'ma nuqsonlar. YUrak tug'ma nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, patogenezi, gemadinamik buzulishlarning turlariga kura tasnifi. Kup uchraydigan yurak tug'ma nuksonlarining klinik kechishi, funksional tashxis mezonlari va konservativ davolash choralarini, noan'anaviy tibbiyot uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplari. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish – o'tkir va surunkali yurak yetishmovchiligida davolash usullari

11-mavzu. Revmatik istma. Kasallikning kechish xususiyatlari. Patogenezi. Klinik kechishi. Tashxis mezonlari. Qiyosiy tashxisi. Davosi va profilaktikasi. Noan'anaviy tibbiyot uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplari. Ortirilgan yurak nuksonlari. Erta tashxislash. Auskul'tativ va funksional mezonlari. YUraktagi tovushlarning kiyesiy tashxisi, rentgenologik tekshiruv.

12-mavzu. Etiologiyasi noma'lum bo'lgan kasalliklar. Endokardial fibroelastoz. Kardiomiopatiyalar. Kasalliklarni kelib chiqish sababalarini, patogenezi, xar bir turning klinik kechishi, tashxis mezonlari, qiyosiy tashxisi va davolash choralarini, noan'anaviy tibbiyot uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplari. Oqibatlarini.

13-mavzu. Arterial gipo- va gipertenziya. YUrak o'tkazuvchanligi va ritmi buzilishlari. Erta tashxislash, yurak ritmi buzilishining klinik namoyon bo'lishi. qiyosiy tashxisi, dinamikada EKG, xolterov monitorlash, veloergometriya, ExoKG, ularning asoratlari va davosi.

14-mavzu. YUrak yallig'lanish kasalliklari. Miokarditlar. Kasallikning kechish xususiyatlari. Patogenezi. Klinik kechishi. Tashxis mezonlari. Qiyosiy tashxisi. Davosi va profilaktikasi. Noan'anaviy tibbiyot uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplari. Bolalarda perikardit. Tashxislash mezonlari (anamnestik, klinik simptomokomplekslar), qiyosiy tashxislash. Kechishi. asoratlari. Natija, noan'anaviy usullar bilan davolash. Bakterial septik endokardit. Erta tashxislash (klinik mezonlari, EKG, ExoKG, FKG dinamikada, bioximik tekshiruvlar, kon, siydikning sterilligiga tekshiruv, immunogramma), qiyosiy tashxislash. Kechishi. asoratlari. Natija, noan'anaviy usullar bilan davolash.

15-mavzu. Surunkali yurak yetishmovchiligi. Anamnestik mezonlari, gemodinamik buzilishlar, CHapqorincha va ungqorincha yurak yetishmovchiligi. Klinik kurinishlari. Davolash. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish – o'tkir va surunkali yurak yetishmovchiligida davolash usullari.

4. Biriktiruvchi to'qima va suyak mushak tizimi kasalliklari

16-mavzu. Biriktiruvchi to'qimaning sistemali kasalliklari. YUvenil revmatoid artrit. Sklerodermiya. Tizimli qizil yugurik. Dermatomiozit. Erta tashxislash. Teri va artritik sindromlarni aniklash, bioximik tekshiruvlar, EKG, ExoKG, FKG, UZD, renografiya Kiyosiy tashxislash. Asoratlari, rehabilitatsiyasi.

17-mavzu. Biriktiruvchi to'qimaning sistemali kasalliklari. Tugunchali periarterit. Biriktiruvchi to'qimani aralash kasalliklari. Biriktiruvchi to'qimani nasliy buzilishlari. Erta tashxislash. Kiyosiy tashxislash. Asoratlari, rehabilitatsiyasi.

18-mavzu. Sistemali kasalliklarni davolash prinsiplari. Kompleks davoning asosiy maqsadlari. Faol patogenetik davoga kiruvchi dori-darmonlar. sitotoksik davoni qo'llashdagi asosiy qonun-qoidalar. Antirevmatik davo o'tkazishda maxalliy davolar, noan'anaviy tibbiyot uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplari

5. Erta yoshdagi bolalarda tanqislik xolatlari

19-mavzu. Anemiyalar. Temir tanqislik anemiyasi. Umumiy ta'rif, etiopatogenetik asoslar, tashxis, qiyosiy tashxis, davo, zamonaviy davo, maxalliy davo, birlamchi va ikkilamchi profilaktik tadbirlar, rehabilitatsiya. Oqibatlari. Anemiyalarda noan'anaviy tibbiyot uslublarini qo'llashning umumiy prinsiplari. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish -anemiya

20-mavzu. Ovqatlanish buzilishlari. Gipovitaminozlar. Umumiy tasavvur, tasnif, klinik belgilar, erda tashxislash, tekshirish usullari, davolash taktikasi.

6. Qon va qon xosil qilish a'zolari kasalliklari

21-mavzu. Gemorragik diatezlar va gemorragik kasalliklar. Koagulopatiyalar. Gemofiliyalar. Villibrand kasalligi. Trombotsitopenik purpura. Trombotsitopatiyalar. Vazopatiyalar.

22-mavzu. Gemoblastozlar. O'tkir leykoz. Surunkali limfoleykoz. Limfagranulematoz. Umumiy tasavvur, tasnif, erda tashxislash, tekshirish usullari, davolash taktikasi.

7. Xazm qilish tizimi kasalliklari

23-mavzu. Ezofagogastroduodenal zona kasalliklari. Kizilungach kasalliklari (reflyuks kasalliklari, ezofagitlar). Oshqozonning funksional buzilishlari. Surunkali gastrit. Surunkali gastroduodenit va duodenitlar. Oshqozon va 12-barmoq ichak yara kasalligi. Oshqozon osti bezining kasalligi. Dispankreatizm, utkir pankreatit, surunkali pankreatit.

24-mavzu. Gepatobiliar tizim kasalliklari. O't chiqarish yo'llari kasalliklari (Xolangitlar. Xoletsistoxolangitlar, ut chikarish yullarining diskineziyasi, ut tosh kasalligi, nuksonlar i anomalialar). Umumiy tasavvur, tasnif, erda tashxislash, tekshirish usullari, davolash taktikasi. Surunkali gepatit, sirroz, nasliy pigment gepatozlar. Erta tashxislash, davolash, prognoz, rehabilitatsiya

25-mavzu. Ichak kasalliklari (mal'absorbsiya sindromi, enterokolitlar). Nospetsefik yarali kolit (NYAK). Kron kasalligi. Disbakteriozlar. Erta tashxislash, kechishi, asoratlari, qiyosiy tashxislash. Davo prinsiplari. Gel'mintozlar (ankilostomidoz, enterobioz, gimenolipidoz, teniarinxoz, exinokokkoz, opistorxoz, shestosomoz)

8. Siydik chiqarish tizimi kasalliklari

25-mavzu. Siydik chiqarish yullarini infeksiyasi, klinika, erta tashxislash, individual terapii. dispanserizatsiya. Reflyuks-nefropatiya, siydik kopi-mochetochnik reflyuksi, tashxislash mezonlari. Davolash prinsipi. sistit, o'tkir sistitni kiyesiy tashxislash mezonlari (vul'vit, vul'vovaginit, fimoz, balanit, piyelonefrit). Davolash tashkiliy tadbirlar

26-mavzu. Glomerulonefritlar, erta tashxislash, kechishi, progressivlanuvchi glomerulonefritni davolash taktikasi. Prognozi. Nefrotik sindrom. Bolalarda siydik tosh kasalligi. Klassifikatsiya. Etiopatogenez, morfologiya, klinik mezonlari. Diagnostika va davolash taktikasi, rehabilitatsiya. Dispanserizatsiya.

27-mavzu. Buyrak va siydik yullari sistemasi nasliy kasalliklari. Erta tashxislash, Qiyosiy tashxis. Davolash taktikasi. Koptopchalar fil'tratsiyasi tezligining kamaysishi bilan kechuvchi kasalliklar. Buyrak kanalchalarining defekti bilan kechuvchi kasalliklar, siydik pufagini usmasi va rivojlanish anomaliyalari.

28-mavzu. Nasliy nefrit va tubulopatiyalar. Suyaklarining deformatsiyasi bilan (fosfat diabet, bolezni Debre de Toni-Fankoni). Tashxislash mezonlari, klinik variantiga kura davolash taktikasi.

29-mavzu. Dismetabolik nefropatiyalar. Interstitsial nefrit. Oksolatli, uratli nefropatiyalar, fosfaturiya, giperkal'siyuriya, klinika. Tashxislash mezonlari, kechishi va davolash taktikasi. Peshobni biokimyoviy tekshirishning tashxisiy ahamiyati, parhezli davoning ahamiyati. Dispanserizatsiya.

30-mavzu. SHoshilinch pediatriya asoslari. Isitma, infeksiyon toksikoz va eksikoz bilan kechuvchi shoshilinch xolatlar. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish - isitma

31-mavzu. O'tkir nafas buzilishlar bilan kechuvchi shoshilinch xolatlar. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish - o'tkir nafas buzilishlar kiyosiy tashxisi va davolash. SHoshilinch xolatlar, ekstren kiyesiy tashxislash. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish – shok.

32-mavzu. Bolaning birinchi oylar davomidagi shoshilinch xolatlar. O'tkir asab buzilishlar bilan kechuvchi shoshilinch xolatlar. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish.

33-mavzu. Bolalarda kasalliklarni integrirlashgan usulda olib borish: Bolalarga statsionar yordam berish- qon ketish.O'tkir qon ketish bilan kechuvchi shoshilinch xolatlar.

3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar auditoriyada va mavzuga tegishli klinikaning bo'limida bir guruhga pedagog tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotning nazariy qismi o'tkazish jihozlangan xonada, stol, stullar, doska, komp'yuter, mul'timedia qurilmalari,

flipchart doskasi, markerlar yordamida o'tkaziladi. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun mavzuga oid negatoskop, sfigmomanometr, fonendoskop, speyser, ingalyator, pikfloumetrlar kerak bo'ladi. Modullar bo'yicha tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, o'rgatuvchi fil'mlar, slaydlar, nazorat savollari, qo'shimcha adabiyotlar elektron nusxada saqlanadi.

Mashg'ulotning amaliy qismi klinika bo'limlarida tematik bemorlar namoyish qilish, laborator va instrumental ko'rsatkichlarini taxlil qilish xamda kerakli xujjatlari to'ldirishdan iborat bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- Pedagogning innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga magistratura talabalarida qiziqish uyg'otish;
- Magistratura talabasida natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Magistratura talabasini nazariy-metodiq jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

O'quv (klinik) amaliyotini o'tish davrida magistratura talabalari quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

1. Poliklinika va statsionarda bolalarga ko'rsatiladigan xizmatni tashkil qilish;
2. Bolalarning ota-onalariga maslahat berish;
3. so'rab-surishtirish (anamnez yig'ish) va ko'zdan kechirish;
4. poliklinika va statsionar sharoitlarida bolalarda tashhislash usullarini qo'llash;
5. bolalarda tibbiy ko'rik o'tqazish;
6. bolada patologik holatlarni tashhislash, davolash va oldini olish;
7. bolalarda birlamchi tez yordamni o'tkazish;
8. sog'lom ona-sog'lom bola tarzi bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish.
9. tibbiy – genetik tekshiruvlar o'tqazish;
10. bioximik tekshiruvlarni taxlil qilish;
11. immunologik tekshiruvlar o'tqazish;
12. tekshiruv natijalarini tahlil qilish;
13. bolalarda funksional tekshiruvlarini o'tqazish, natijalarni taxlil qilish;
14. bolalarda endoskopik tekshiruvlarni o'tqazish;
15. rentgenologik tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish;
16. KT, MRT tekshiruvlar natijalarini tahlil qilish;
17. shoshilinch holatlarda birinchi yordam ko'rsatish;
18. kasalliklarni tashxislash, olib borish usullari va bo'lishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish;

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

UK 1¹. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

¹ UK- умумий компетенция

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 1². Umumiy pediatrianing standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Pediatriyaning muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Magistratura talabasining amaliyoti ixtisoslashtirilgan muassasalarning bo'limlarida va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'rganilayotgan amaliy ko'nikmani o'rganish motivatsion asosi aniqlanadi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Amaliy ko'nikmalarni amalga oshirish uchun kerakli asbob anjomlar ishlash mexanizmi, ishlatish qoidalari bilan talabar tanishtiriladi.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedrada barcha asbob anjomlar mavjud va ishchi holatda bo'lishi lozim.

2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish. Bu bosqichni amalga oshirish uchun amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam algoritmi pedagog tomonidan va videofil'mlar orqali namoish etiladi, algoritmi asosida bosqichma-bosqich to'g'ri bajarishga alohida e'tibor qaratiladi. Magistratura talabasi amaliy ko'nikmani mustakil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, klinik ordinatorlar o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida keyin umumlashtirgan

² UKK – умумий касбий компетенция

xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruhsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma-qadam algoritmi va videofil'mi, o'kuv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlyar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlar, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda nazorat pedagog tomonidan amalga oshiriladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoish etilishi, kritik muhokama qilinishi mumkin. Magistratura talabasi, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa rezidentlarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalarga ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan rezidentning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma avtomatizm darsigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

O'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik holatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni taxlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarihlari va ambulator kartalar va x.k. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa rezidentlar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan rezidentning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

3.Xulosa. Bu bosqichda pedagog magistratura talabasi tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'lla olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb xisoblanadi.

Magistratura talabasi bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib ximoya qilganda baxolanadi.

Mashg'ulot so'nggida pedagog har bir magistratura talabasi amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Magistratura talabasi amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Magistratura talabasi barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda mutaxassislikni o'zlashtirgan hisoblanadi.

4.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1.Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

1. Erta yoshdagi bolalarda shoshilinch xolatlar.
2. Erta yoshdagi bolalarda osteopatiyalar va raxitning differensial diagnostikasi.
3. Leykozlarda organizning infeksiyaga qarshi rezistentligini pasayishining patogenezi.

4. Gemorragik sindromning nasliy shakllarini patogenezi
5. Trombotik va gemorragik sindromlar kelib chiqishiga sabab bo'luvchi vazopatiyalarni etiologiya va patogenezi
6. "Sarflanuvchi koagulopatiyalar": kelib chiqish shartlari, rivojlanish mexanizmlari, oqibatlari.
7. Erta yoshdagi bolalarda davolovchi oziqlantirish.
8. O'pkalar patologiyasida surfaktant tizimning roli.
9. Patologiyalarda gipo- va giperkapniyaning axamiyati.
10. O'pka shishi etiologiya, patogenezi va davolash tamoyillari.
11. "Pankreatik kollaps" ni etiologiya, patogenezi va klinik ko'rinishi.
12. Ovqat xazm bo'lishi buzilishlarining patogenezida gastrointestinal gormonlar roli.
13. Nasliy enteropatiyalarni patogenezi, asosiy klinik belgilari va oqibatlari.
14. Bolalarda buyrak yetishmovchiligi.
15. Bolalar va o'smirlarda kollagen kasalliklarini differensial diagnostikasi.
16. Gastroenterologiyada funksional tekshiruv usullari.
17. O't chiqarish yo'llari diskineziyasi
18. Gastroenterologiyada shoshilinch xolatlar.
19. Kapillyarotrofik yetishmovchilik sabablari, mexanizmlari, klinik belgilari, oqibatlari.

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Bolalar va o'smirlar kasalliklari moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil keys, vaziyatli masala va krossvordlar shaklida amalga oshiriladi.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Bolalar va o'smirlar kasalliklari moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Magistratura talabasi mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- institutning axborot resurs markazida, respublika tibbiy kutubxonasi va klinikaning kutubxonasida adabiyotlarni taxlil qilish;

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- bemorlarni olib borish va davolashda davolovchi shifokor bilan ishtirok etish;

- aholi orasida sanitariya va gigiyena bo'yicha suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborotlar yordamida ma'ruza, referatlar tayyorlash;

